

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/08.05.2025.I.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RASULOVA SHAXNOZA XATAMOVNA

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH
XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on economical
sciences**

Rasulova Shaxnoza Xatamovna

To‘qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish masalalari.....3

Расулова Шахноза Хатамовна

Вопросы совершенствования бухгалтерского учета и анализа производственных затрат на предприятиях текстильной промышленности..27

Rasulova Shakhnoza Khatamovna

Issues of improving accounting and analysis of production costs at textile enterprises.....53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/08.05.2025.I.06.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

RASULOVA SHAXNOZA XATAMOVNA

**TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH
XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA TAHLILINI
TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3556 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat texnika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ferpi.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kudbiyev Sherzod Davlyatovich
iqtisodiyot fanlari doktori, DSc

Rasmiy opponentlar:

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Pardayeva Shahnoza Abdinabiyevna
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat texnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2025.I.06.05 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ kuni soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150109, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. Tel.: 8(73) 241-12-01, faks: 8(73) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150109, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. Tel.: 8(73) 241-12-01, faks: 8(73) 241-12-06, e-mail: info@fstu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I.J.Jaxongirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.

O.T.Nurmatov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari falsafa bo'yicha doktori (PhD), dotsent.

I.N.Ismanov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon savdo tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, "Global sanoat majmuasi nuqtai nazaridan to'qimachilik sanoati yetakchi tarmoqlardan biri hisoblanadi. U jahon yalpi mahsulotining 5,7 foizi hamda sanoat majmuasida band bo'lganlarning 14 foizidan ortiq ulushiga ega. Butunjahon to'qimachilik sanoati yer yuzi aholisi sonining oshishi, farovonlik va xarid qobiliyatining yuksalishiga bog'liq holda doimiy iqtisodiy o'sish bilan xarakterlanadi. So'nggi o'n besh yil ichida tovar aylanmasi ikki baravardan ko'proqqa oshdi. Kalava ip, mato, kiyim-kechak iste'moli Yevropa Ittifoqi davlatlarida 90,5 foizga, AQSHda 99,3 foizga, Yaponiyada esa ikki baravardan ortiqroqqa o'sdi. Rossiyaning to'qimachilik sanoati jahon tovar aylanmasining 1,9 foiziga egalik qiladi. Bugungi kunda Xitoy dunyodagi eng yirik to'qimachilik mahsulotlari eksportchisi hisoblanib, 76,9 milliard dollarga baholanayotgan jahon bozorining qariyb 30 foizini egallaydi"¹. Hozirda jahon bozorida ekologik to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talab oshib bormoqda. Bunday sharoitda narxni optimal darajada pasaytirish orqali mahsulotning sotuv hajmini ko'paytirish, yangi bozorlarga chiqish va global raqobatda ustunlikka erishish imkoniyatlari tobora katta ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida olib borilayotgan tadqiqotlarda to'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimini takomillashtirish, hisob tizimida ilg'or usul va uslublarni joriy etish, mahsulot tannarxi ko'rsatkichlarini, narxni to'g'ri shakllantirish doirasida buxgalteriya hisobi hamda tahlilini zamonaviy talablar asosida tashkil etish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. To'qimachilik sohasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u katta miqdordagi xom-ashyo, elektr-energiya, suv va yoqilg'i hamda kimyoviy vositalardan foydalanadi. Natijada, ishlab chiqarish jarayoniga moliyaviy resurslarni maqsadli rejalashtirish va jalb qilish, ularning ishlatilishini optimal nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mahsulot qiymatini aniq belgilash, ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibini chuqur o'rganish va shu asosida uning narxini to'g'ri belgilash bilan raqobatli bozor sharoitida ustunlikka ega bo'lish barqaror iqtisodiy rivojlanishning zarur sharti sifatida tadqiq etilmoqda. Shuningdek, tannarx hisobini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, zamonaviy hisob usullarini joriy etish hamda xarajatlar samaradorligini oshirish choralarini ilmiy jihatdan asoslashga katta e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining tez sur'atlarda rivojlanib borayotgan tarmoqlaridan biri hisoblangan to'qimachilik korxonalariga yo'naltirilayotgan xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish borasida strategik vazifalar belgilandi. Shuningdek, "Ip-kalavani chuqur qayta ishlash, ishlab chiqarish zanjirida mavjud bo'shliqlarni to'ldirishga qaratilgan loyihalar ro'yxatini shakllantirish, tayyor mahsulotlar uchun milliy brendlarni rivojlantirish va ularning eksportini oshirish, jumladan, milliy hamda xorijiy brenddagi tayyor mahsulot

¹ <https://cbu.uz/upload/medialibrary/dba/py0zs3bo0qsthievm25p53nbc4sypafk/Godovoy-otchet-2023.pdf>

eksporti hajmini 2026-yilda 5 mlrd. AQSH dollariga yetkazish”², sanoatning “drayver” sohalarini rivojlantirish, hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish maqsadida 2030-yilgacha “To‘qimachilikda ip kalavani qayta ishlash darajasini 100 foizga yetkazish hamda yuqori sifatli matoga talabni qondirish uchun 400 ming tonna sun‘iy va aralash tola ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish”³ kabi vazifalar mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobini to‘g‘ri yuritishning dolzarbligini yanada oshiradi. Chunki xom-ashyoni qayta ishlash jarayonlarining murakkablashuvi va yangi texnologiyalarning joriy etilishi sharoitida xarajatlarni to‘g‘ri tasniflash, shaffof kalkulyatsiya qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tezkor axborotlarni aniq taqdim etish iqtisodiy samaradorlikning asosiy omili hisoblanadi. Shu munosabat bilan, zamonaviy yondashuvlar asosida ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish tizimini takomillashtirish orqali yuqorida qayd etilgan strategik vazifalarni amalda bajarish imkoniyati yaratiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi PF-6-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2024-yil 1-maydagi PF-71-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2023-yil 2-sentyabrdagi PF-155-son “To‘qimachilik sanoatini moliyaviy qo‘llab quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 10-yanvardagi PF 2-son “Paxta to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab quvvatlash, to‘qimachilik va tikuvchilik-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-yanvardagi PF-53-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-maydagi PF-5989-son “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2019-yil 16-sentyabrdagi PQ-4453-son “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori hamda mazkur sohaga oid yana bir qator normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. To‘qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobi va tahlilini tashkil etish uslubiyotining

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmon. <http://lex.uz/docs/5841063>

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ““O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, 11.09.2023 yildagi PF-158-son. <https://lex.uz/docs/-6600413>

nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish yuzasidan ko'plab xorijlik olimlar, jumladan, Ch.Xorngren, F.Mexabber hamda MDH iqtisodchi olimlaridan I.Belobjetskiy, Ya.Sokolov, I.Gluxova, S.Cheglakova, I.Goman, V.Paliy, A.Sheremet, N.Lyubushinlar munosib hissa qo'shishgan⁴.

To'qimachilik korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hamda mahsulot tannarxini hisoblash va uning nazoratini amalga oshirish masalalari mamlakatimiz olimlari R.Dusmuratov, A.Karimov, Sh.Ergasheva, F.Temirov, D.Mavlyanova, I.Ismanov, N.Toshmamatov, N.Abdusalomova, D.Usmanova, N.Jo'rayev, B.Isroilov, R.Xolbekov va boshqalarning ishlarida keng o'rin olgan⁵. Shuningdek, to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobi, xarajatlardan samarali foydalanishda boshqaruv tahlili usullarini takomillashtirish masalalari Sh.Kudbiyev, Z.Irmatova, O.Davranov, I.Toshpo'latov, B.Tursunov, M.Xudoyqulov, A.Maxmudov va boshqalarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan⁶.

⁴ Charles T. Horngren, Srikant M. Datar, Madhav Rajan "Cost Accounting: A Managerial Emphasis". MyLab Accounting yoki Revel™, 2017. — 992p; Fatima Zohra Meghabber. Reduce costs in the modern manufacturing environment: case study with implementation of target costing and ϵ -constraint method. University of Tlemcen – ALGERIA. European Scientific Journal June 2015 edition vol.11, No.16 ISSN: 1857 – 7881 (Print) e — ISSN 1857- 7431-134p.; Белобжецкий И.А. "Бухгалтерская отчетность и методы ее контроля". М.: "Финансы и статистика", 2015.-256с.; Соколов Я. В. Управленческий учет : учебник / Я. В. Соколов. СПб. : Магистр, 2015.-455 с.; И. М. Глухова. Бухгалтерский финансовый учет: учеб. пособие. Хабаровск: Изд-во Тихоокеан. гос. ун-та, 2018. — 164 с; Чеглакова, Светлана Григорьевна. Бухгалтерский учет и анализ : учебное пособие / С.Г. Чеглакова, О.В. Киселева, О.В. Скрипкина, Ю.Н. Прудников. — М. : Дело и Сервис, 2015. — 448 с; И.В. Гоман, Е.С. Подборнова. Бухгалтерский учет, налогообложение и аудит предприятия. Учеб. пособие. Самара: Изд-во Самарского университета, 2018. — 80 с; Палий В.Ф. Современный бухгалтерский учет. —М.: "Бухгалтерский учет", 2003. -792с.; Шеремет А.Д., Старовойтова Е.В. Бухгалтерский учет и анализ: Учебник / Под общ. ред. проф. А.Д. Шеремета. — М.: ИНФРА-М, 2010. — 618 с.; Любушин, Н.П. Экономический анализ [Электронный ресурс]: Учебное пособие / Н.П. Любушин. — 3 изд., перераб. и доп. — Электронные текстовые данные (1 файл; 12,9 Мб). — М.: ЮНИТИ, 2013. — 575 с.

⁵ Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: "Yangiyul polygraph service". 2020 y. — 495b.; A.A.Karimov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, N.M. Imanova — Buxgalteriya hisobi: xalqaro molliaviy hisobot standartlari. Darslik — T.: "MOLIYA", 2020 — 310 b; Sh.T.Ergasheva, F.T.Temirov va D.M.Mavlyanova. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi", 2021-290b.; I.N.Ismanov. Buxgalteriya hisobi da "xarajatlar" va "sarflar" tushunchalarining farqli belgilari yuzasidan ayrim mulohazalar // "Raqqamli iqtisodiyot sharoitida soliq ma'muriyatchiligi va xalqaro soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish" mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya MATERIALLAR TO'PLAMI. 2021 yil 19 noyabr Toshkent-2021, 259-265 betlar; Toshmamatov N.Buxgalteriya hisobi nazariyasi. Darslik. — T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2019. — 376 bet.; N.B.Abdusalomova, F.T.Temirov. Moliyaviy hisob. O'quv qo'llanma. —T.: IQTISODIYOT, 2021. — 283 b; D.Q.Usmanova Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. — Samarqand, SamDU, 2020. -388 bet.; Jo'rayev N.Yu., Abduvaxidov F., Sotivoldiyeva D. Moliyaviy va boshqaruv hisobi / Darslik -T.: "IQTISOD-MOLIYA", 2012. 480 bet.; Karimov A.A. va boshqalar. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari. O'quv qo'llanma-T. : "Iqtisod-Moliya", 2018.-192 b.; B.I.Isroilov, R.O.Xolbekov. Buxgalteriya hisobi nazariyasi: darslik — Toshkent: "Tafakkur" nashriyoti, 2020.-240 b.

⁶ Кудбиев Ш.Д. Ишлаб чиқариш харажатлари ҳисоби ва уни такомиллаштириш (ип йиғиришга ихтисослашган корхоналар мисолида) // Икт.фан.номз.диссерт. Тошкент — 2006. 148 б.; Ирмаева З.Р. Тўқимачилик корхоналари меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланишда бошқарув таҳлили усуллари такомиллаштириш // икт. фан. фалсафа доктори дис. Тошкент-2018. 138 б.; Давранов О.А. Ўзбекистон тўқимачилик sanoati корхоналари иқтисодий салоҳиятини оширишнинг асосий йўналишлари // икт. фан. фалсафа доктори дис. Тошкент-2018.-154б.; Тошпўлатов И.А. Тўқимачилик корхоналарининг рақобатбардошлигини бошқариш тизимини такомиллаштириш // икт. фан. фалсафа доктори дис. Тошкент-2019. 148 б.; Турсунов Б.О. Корхона фаолиятини бошқаришни такомиллаштиришда ишлаб чиқариш омилларидан самарали фойдаланиш (Тўқимачилик корхоналари ишлаб чиқариш қувватлари мисолида) // икт. фан. фалсафа доктори, Тошкент-2019.158-б.; Худойқулов М.Р. Тўқимачилик тармоғи акциядорлик жамиятларида бошқариш механизми самарадорлигини ошириш // икт. фан. фалсафа доктори дис. Тошкент-2018. 152 б.; Maxmudov A.N. Xarajatlar va daromadlarning boshqaruv hisobi va ichki auditi metodologiyasini takomillashtirish // Iqtisodiyot fan.doktori dis. Toshkent-2023. 204 b.

Ammo yuqoridagi xorijiy hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlanmalarda to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish masalasiga alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida yetarlicha e'tibor berilmagan. Shunday qilib, to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlili yo'nalishida hozirgi zamon standartlariga muvofiq, fundamental va amaliy tadqiqotlar amalga oshirish zarur bo'lib, sohadagi nazariy-uslubiy hamda amaliy jihatdan yechim talab qilayotgan muammolar ushbu ilmiy ishning dolzarbligini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Farg'ona davlat texnika universitetining "Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dasturining o'rta muddatga mo'ljallangan rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy taklif hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ishlab chiqarish xarajatlarining mazmuni va ularning turkumlanishi yuzasidan nazariy qarashlarni o'rganish;

ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish usullari va ularning tasnifini tadqiq etish;

mahsulot tannarxi hisobini yuritishning me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish;

O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatining rivojlantirish tendensiyalarini baholash;

sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish holatini tahlil qilish;

yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlari buxgalteriya hisobining yuritilishini tahlil qilish;

ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini amalga oshirish uslublari va uning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq etish;

mahsulot tannarxi tahlilini takomillashtirish;

TOWS matritsasi asosida ishlab chiqarish xarajatlari tahlilini takomillashtirishga qaratilgan taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik sanoati korxonalari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib to'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobi va tahlilini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmuasi hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida mantiqiy fikrlash, qiyosiy tahlil, ma'lumotlarni guruhlash, taqqoslash, SWOT tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini aniq shakllantirishiga erishish maqsadida "ABC" usulini qo'llash "Ustama xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash", "Xarajat drayverlari" va "Xarajatlarni boshqarish samaradorligi" iqtisodiy mezonlarini hisob siyosatiga kiritish asoslangan;

umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning obyektivligini ta'minlash maqsadida mahsulot turlari bo'yicha umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi 2511 – "Kalava ip ishlab chiqarish uchun xarajatlar" va 2512 – "Gazlama ishlab chiqarish uchun xarajatlar" analitik ishchi schyotlarini qo'llash taklif etilgan;

to'qimachilik korxonalarida realizatsiya qilingan, lekin xaridorlar tomonidan nuqson yoki kamomad tufayli rad etilgan va qaytarilgan mahsulotlar hisobini yuritish maqsadida hisob siyosatiga 2210 – "Reklamatsiyadan qaytgan mahsulotlar" ishchi schyotini kiritish taklif qilingan;

to'qimachilik korxonalarida tashqi omillar asosida xarajatlar tuzilmasining kuchli va zaif jihatlarini muvofiqlashtirish, tahdidlarni minimallashtirish hamda neytrallashtirish maqsadida "Xarajatlar-Strategiya" matritsasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

to'qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini shakllantirishda "ABC" usulini qo'llash orqali korxonalarda xarajat drayverlari, ya'ni energiya resurslar sarfi, texnologik jarayonlar va ish vaqti orqali ustama xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, har bir ustama xarajat ulushini aniq belgilash hamda uni kamaytirish sharoitlarini baholash asosida faoliyat samaradorligiga obyektiv baho berish imkoniyati yaxshilangan;

to'qimachilik korxonalarida umumishlab chiqarish xarajatlarini mahsulot turi bo'yicha analitik hisobini tashkil etish orqali korxonalarda xarajatlarni taqsimlash masalasini oqilona boshqarishga, har bir xizmat turi bo'yicha taqsimlangan xarajatlarga me'yor belgilashga, shuningdek, ishchi schyotlardagi ma'lumotlar asosida har bir sexda umumishlab chiqarish xarajatlarini iste'mol qilingan xizmatlarning har bir turi bo'yicha nazoratini tashkil qilishga va mahsulot tannarxini to'g'ri shakllantirishga erishilgan;

"Reklamatsiyadan qaytgan mahsulotlar" ishchi schyotini qo'llash orqali korxonalarda reklamatsiya xarajatlarini texnologik bosqichlar bo'yicha aniq identifikatsiya qilish, hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish, nuqsonlar yuzaga kelish sabab-oqibatlarini o'rganish, shuningdek, reklamatsiyadan qaytgan mahsulotlar ma'lumotlarini umumlashtirish imkoniyati yaratilgan;

xarajatlar tuzilmasining kuchli va zaif jihatlarini muvofiqlashtirish, tahdidlarni minimallashtirish hamda neytrallashtirishga qaratilgan matritsani qo'llash korxonaning aniq rivojlanish strategiyasini tanlash, risklarni oldindan boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish va moliyaviy barqarorlikni hamda bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatini yaxshilagan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nazariy va qo'llanilgan yondashuv hamda usullarning tadqiqot maqsadiga muvofiqligi, statistik ma'lumotlar rasmiy manbalardan olinganligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatiga

tegishli rasmiy statistik ma'lumotlar, korxonalar moliyaviy hisoboti ma'lumotlaridan foydalanilganligi, tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati:

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan uslubiy taklif, tavsiya, xulosalar tarmoqdagi korxona va tashkilotlar faoliyatida qo'llanilishi, mahsulot tannarxini tashkil etuvchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlarining to'liqligi, ishonchliligi tahlilini sezilarli darajada oshiradi hamda to'qimachilik sanoati korxonalarini boshqarishning turli darajalarida buxgalteriya hisobining nazorat funksiyalarini kuchaytirishga, pirovard natijada ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam berishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarning amaliy ahamiyati takliflar va tavsiyalardan sanoat korxonalari faoliyatida ishlab chiqarish xarajatlari buxgalteriya hisobi hamda tahlilini takomillashtirish asosida iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yo'naltirilgan dasturlar, soha xodimlarining malakasini oshirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda, oliy o'quv yurtlarida "Buxgalteriya hisobi", "Moliyaviy hisob", "Sanoat korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish", "Iqtisodiy tahlil" kabi fan dasturlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. To'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

to'qimachilik korxonalarida tarmoq xususiyati asosida mahsulot tannarxini shakllantirishda "ABC" usulini qo'llash yuzasidan berilgan tavsiya O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 27-noyabrdagi 02/06-2772-son, O'zbekiston savdo sanoat palatasining 2025-yil 29-noyabrdagi 01-19-13496-son ma'lumotnomalari). Mazkur tavsiyani amaliyotga joriy etilishi natijasida korxonalarda xarajat drayverlari, ya'ni energiya resurslar sarfi, texnologik jarayonlar va ish vaqti orqali ustama xarajatlarni to'g'ri taqsimlash, har bir ustama xarajat ulushini aniq belgilash hamda uni kamaytirish sharoitlarini baholash asosida faoliyat samaradorligiga obyektiv baho berish imkoniyati yaxshilangan;

umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi analitik ishchi schyotlarini qo'llash bo'yicha berilgan taklif O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2025-yil 27-noyabrdagi 02/06-2772-son, O'zbekiston savdo sanoat palatasining 2025-yil 29-noyabrdagi 01-19-13496-son ma'lumotnomalari). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida korxonalarda xarajatlarni taqsimlash masalasini oqilona boshqarishga, har bir xizmat turi bo'yicha taqsimlangan xarajatlarga me'yor belgilashga, shuningdek, ishchi schyotlardagi ma'lumotlar asosida har bir sexda umumishlab chiqarish xarajatlarini iste'mol qilingan xizmatlarning har bir

turi bo'yicha nazoratini tashkil qilishga va mahsulot tannarxini to'g'ri shakllantirishga erishilgan;

to'qimachilik korxonalarida realizatsiya qilingan, lekin xaridorlar tomonidan nuqson yoki kamomad tufayli rad etilgan va qaytarilgan mahsulotlar hisobini yuritish maqsadida 2210 – “Reklamatsiyadan qaytgan mahsulotlar” ishchi schyoti qo'llash bilan bog'liq taklif O'zbekiston Respublikasi “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil 27-noyabrdagi 02/06-2772-son, O'zbekiston savdo sanoat palatasining 2025-yil 29-noyabrdagi 01-19-13496-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy yangilikni joriy etish natijasida korxonalarda reklamatsiya xarajatlarini texnologik bosqichlar bo'yicha aniq identifikatsiya qilish, hisobot ma'lumotlarini tahlil qilish, nuqsonlar yuzaga kelish sabab-oqibatlarini o'rganish, shuningdek reklamatsiyadan qaytgan mahsulotlar ma'lumotlarini umumlashtirish imkoniyati yaratilgan;

to'qimachilik korxonalarida tashqi omillar asosida xarajatlar tuzilmasining kuchli va zaif jihatlarini muvofiqlashtirish, tahdidlarni minimallashtirish hamda neytrallashtirishga qaratilgan “Xarajatlar-Strategiya” matritsasi bo'yicha bergan tavsiyasi O'zbekiston Respublikasi “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasi tarkibiga kiruvchi korxonalar hisob siyosatiga kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi “O'zto'qimachilik sanoat” uyushmasining 2025-yil 27-noyabrdagi 02/06-2772-son, O'zbekiston savdo sanoat palatasining 2025-yil 29-noyabrdagi 01-19-13496-son ma'lumotnomalari). Mazkur matritsadan foydalanish orqali korxonaning aniq rivojlanish strategiyasini tanlash, risklarni oldindan boshqarish, xarajatlarni optimallashtirish, ishlab chiqarish va moliyaviy barqarorlikni hamda bozorlarda raqobatbardoshlikni ta'minlash imkoniyatini yaxshilagan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan 6 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, umumiy hajmi 154 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatib o'tilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi va dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari hamda obyekti, predmeti va usullariga tavsif berilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy qilinishi izohlab berilgan, tadqiqot

natijalarining aprobatyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxi hisobining ilmiy nazariy hamda me'yoriy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida ishlab chiqarish xarajatlari mazmuni va ularning turkumlanishi, ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish usullari va ularning tasnifi hamda mahsulot tannarxi hisobini yuritishning me'yoriy-huquqiy asoslari yoritilgan.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning barchasi mamlakat iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash va aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan. Mamlakatning iqtisodiy siyosati xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini tubdan qayta shakllantirish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda. Bu esa korxona boshqaruvining nazariy va uslubiy yondashuvlarini, shu jumladan, uning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan — buxgalteriya hisobini, birinchi navbatda, ishlab chiqarish xarajatlarining hisobga olinishini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi. Ishlab chiqarish faoliyatining muvaffaqiyati va tadbirkorlik subyektlarining barqaror rivojlanish masalasi to'g'ridan-to'g'ri sarflangan xarajatlarning shaffof hisobga olinishiga bog'liq. Shuning uchun korxona xarajatlarini minimallashtirish maqsadida ularni doimiy ravishda nazorat va tahlil qilish zarurdir. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini hisoblashning nazariy, tashkiliy va uslubiy masalalarini hal qilish uchun ushbu tushunchalarning mohiyati va mazmunini to'liq ochib berish maqsadga muvofiq. Bularning barchasi ishlab chiqarish xarajatlarini hisoblashning ilmiy asoslangan tizimini shakllantirish, ularni tahlil qilishning asosiy yo'nalishlari va usullarini belgilash imkoniyatini yaratadi. Ishlab chiqarish xarajatlarining ta'rifi, mazmuni, ularning tasnifi bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ishlari diqqatga sazovordir (1-jadval).

1-jadval

Xarajatlar tushunchasiga berilgan ta'riflar⁷

T/r	Mualliflar	Ta'riflar
1.	K. Druri	Xarajatlar juda tez-tez ishlatiladigan atama bo'lib, aytaylik, biron-bir mahsulot yoki qandaydir xizmat kabi aniq maqsadga erishish uchun sarflangan barcha resurslarni pulda aks ettiradi
2.	A. Ilina	Xarajatlar — hisobot davrida tashkilotning iqtisodiy faoliyatida foydalanilgan moddiy, mehnat, moliyaviy va boshqa resurslarning qiymat ifodasidir.
3.	Ch. Xorngren	Xarajatlar iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar uchun to'lanishi kerak bo'lgan resurslar yoki pul sifatida tushuniladi
4.	S. Kiselyova	Xarajatlar — bu ma'lum maqsadlar uchun ishlatiladigan resurslarning qiymati. Foydalanilgan resurslar miqdori ularni ta'minlash uchun pul ko'rinishida ko'rsatilishi kerak o'lchovlardir
5.	A. Ibragimov	Xarajat- bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo'lib, daromad va xarajatlar konsepsiyasiga ko'ra, o'sha davrning o'zida daromad keltirishi kerak
6.	R. Xolbekov	Xarajatlar — ma'lum maqsadlarga erishish uchun foydalaniladigan, pul shaklida o'lchanadigan resurslar miqdoridir

Fikrimizcha, aniq xarajatlar barcha foydalaniladigan ishlab chiqarish omillari uchun to'lanadigan to'lovlardan yoki sarflardan iborat bo'lib qolmasdan, balki

⁷ Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi

mahsulotni iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlardan tarkib topishi maqsadga muvofiqdir. Xususan, xarajatlar tarkibiga asosiy va aylanma mablag'lar uchun xarajatlar, ish haqi xarajatlaridan tashqari tadbirkorlikning xavfli, innovatsion tabiati bilan bog'liq xarajatlar (masalan, zaxira fondlarini yaratish, risklarni sug'urtalash, texnologiyani takomillashtirish xarajatlari, ishlab chiqarish ishlari va boshqalar) ham kiritilishi zarur.

Demak, ishlab chiqarish xarajatlari — bu ishlab chiqarishning xususiyatlari va shartlari bilan asoslangan holda yangi foydali moddiy ne'matni yaratishga yo'naltirilgan material, mehnat va moliyaviy resurslarning qiymatlari yig'indisidir.

Tadqiqotda ta'kidlanishicha, buxgalteriya hisobi metodologiyasi va tashkilotdagi o'zgarishlar ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish usullariga taalluqli masalalarni ko'rib chiqishni talab qiladi. Xarajatlarni hisobga olish uslubiyotini takomillashtirish, ishlab chiqarish va mahsulot tannarxini hisoblash an'anaviy ravishda mahalliy mutaxassislarning diqqat markazida bo'lib kelgan, ammo bugungi kungacha xarajatlarni hisobga olish va hisoblash tushunchalarining o'zaro bog'liqligi, xarajatlarni hisobga olish va hisoblash usullarining birligi va farqlanishi masalasi munozarali bo'lib qolmoqda.

Tannarx hisobini to'g'ri va aniq yuritish uchun turli axborot manbalariga tayanish zarur. Bu axborotlar ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlaridan, tashqi muhitdan, buxgalteriya hisobotlaridan, texnologik ma'lumotlardan hamda bozor tahlillaridan olinadi.

Dissertatsiya ishining **“To'qimachilik sanoati korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlarining hisobini tashkil etish holatini baholash”** deb nomlangan ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida to'qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etish holatini baholash, yordamchi xo'jaliklarda ishlab chiqarish xarajatlarining buxgalteriya hisobining yuritilishi tahlili kabi masalalar yoritilgan.

Hozirda to'qimachilik sanoati tarmog'i rivojlanishining yana bir muhim jihati- bu raqobatbardosh, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish orqali respublikamizning valyuta zahiralarini to'ldirishdir.


Tadqiqotda ta'kidlanishicha, to'qimachilik sanoati mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lib, qo'shni mamlakatlarda yirik xom ashyo bazasi va juda katta bozorga ega. Shu sababdan kuchli to'qimachilik va tikuvchilik sektorini shakllantirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan biridir. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq, 2026-yilga borib, to'qimachilik sanoati ishlab chiqarishini 2 barobar oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash asosida ichki va jahon bozorida xaridorgir bo'lgan raqobatbardosh tayyor mahsulotlar hamda yarim fabrikatlar, jumladan, bo'yalgan ip, mato, ishlov berilgan teri, trikotaj, tikuvchilik, poyabzal, attorlik-charm buyumlari ishlab chiqarish hisobidan to'qimachilik hamda charm-poyabzal sanoati tuzilmasini yanada takomillashtirish ham ko'zda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-maydagi PF-71-son **“To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib**

chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoniga ko‘ra, gazlama, trikotaj mato ishlab chiqarish va bo‘yash hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy hamda moliyaviy shart-sharoitlar yaratish asosida ip-kalavani qayta ishlash darajasini 2027-yil yakunigacha 100 foizga olib chiqish, xalqaro darajada tan olingan kamida 10 ta mahalliy brendlarini yaratish ustidagi ishlarni manzilli tashkil etish vazifalari belgilandi. Shuningdek, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan va respublikada ishlab chiqarilmaydigan, belgilangan ro‘yxat bo‘yicha import qilinadigan xom ashyo hamda boshqa materiallar, butlovchilar, ehtiyot qismlar 2027-yil 1-yanvargacha bojxona bojidan ozod qilinadi. 2026-yil 1-yanvargacha to‘qimachilik sanoat zonalarini direksiyalari va ularda tashkil etiladigan korxonalar mol-mulk solig‘i, yer solig‘i hamda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqlardan ozod etilishi belgilandi.

Shunga muvofiq, “O‘zto‘qimachilik sanoati” uyushmasi chet ellik yetakchi sheriklar bilan hamkorlikda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, yangilarini tashkil etish bo‘yicha bir qator loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda.

Mamlakatimizda sohadagi iqtisodiy islohotlar va kiritilayotgan investitsiyalarning samaradorligi natijasida yildan-yilga ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotining miqdori oshib bormoqda (1- rasm).



1-rasm. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati tarmoqlarining 2015-2030-yillardagi rivojlanish istiqbollari (Sanoat mahsulotini ishlab chiqarish) mlrd.so‘m.⁸

Tadqiqotda aniqlanishicha, agar 2015-yilda 3015,6 mlrd.so‘m 2020-yilda esa 6781,6 mlrd.so‘mlik to‘qimachilik va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 2025-yilda 14490,8 va 2030-yilda 31097,2 mlrd.so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish prognoz qilinmoqda. Bu 2030-yilda 2015-yilga nisbatan 10,3 barobar ko‘p, demakdir.

⁸ Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi

Tahlillarga ko'ra, "O'zto'qimachilik sanoati" uyushmasi korxonalari soni 2000 ga yaqin bo'lib, ularning 30 foizi Farg'ona vodiysida joylashgan. Respublikada ishlab chiqariladigan ip hajmining 40 foizi Farg'ona vodiysi korxonalariga to'g'ri keladi. Xususan, Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan to'qimachilik korxonalari soni 870 ta bo'lib, ular tarkibiga kiruvchi Marg'ilon textile MChJ, POSCO MChJ, Global Textile MChJ, "BS TEXTILE FARGONA" MChJ va "QUVA TEKSTIL" MChJ korxonalari innovatsion yo'nalishda rivojlanayotgan korxonalar hisoblanadi.

Keyingi paytlarda mahsulot xarajatlari va tannarxini boshqarish bilan bog'liq masalalarning tobora dolzarbligi ortmoqda, mahsulot xarajatlarini hisobga olish va tannarxini hisoblashning zamonaviy, innovatsion uslublari paydo bo'lmoqda.

2-jadval

Xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash bo'yicha zamonaviy uslublarning afzalliklari va kamchiliklari⁹

Uslublar	Afzalliklari	Kamchiliklari
"Just in time"	-zaxiralar darajasini kamaytirish; -buyurtmalarni bajarish ishonchligini oshirish; - buyurtmalarning ma'naviy eskirish xavfini kamaytirish; -ishlab chiqarish sifatini takomillashtirish.	- ta'minotning kichik partiyalarda amalga oshirilishi.
ABC-costing	-ustama xarajatlarni muayyan mahsulotga asosli ravishda kiritish; -tannarxni hisoblash aniqligining oshishi; - olinadigan axborotlarning xarajatlarni shakllantirish jarayoni bilan o'zaro bog'liqligi	-hisob va axborot tizimida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirilishining zarurligi.
Benchmarking	- boshqa korxonalarining tajribasi va texnologiyalarini hisobga olgan holda xarajatlarni belgilash va boshqarishni optimallashtirish.	-etalon korxonani noto'g'ri tanlashda samaradorlik pasayadi; - boshqa korxonalar tajribasini qo'llashning tizimli doimiy jarayonga aylanishi.
Target-costing	-marketing yo'nalishidagi ishlab chiqarishning shakllanishi; -mahsulotlarning yangi turlariga maqsadli xarajatlarni belgilash; -mahsulotni yaratish bosqichida xarajatlarni nazorat qilish.	- xarajatlarni maqsadli kamaytirishda qo'shimcha vaqtga va investitsiyalarga ehtiyoj; - korxonaning texnik imkoniyati darajasigacha kamaytirish imkoniyatining cheklanganligi
Kayzen-costing	-xarajatlarni uzluksiz kamaytirish va ularni belgilangan darajada ushlab turish	-xodimlarni korxona faoliyatiga jalb etish bo'yicha motivatsiya va korporativ konsepsiyaga ehtiyoj
Cost-Killing	-korxonaning ichki va tashqi muhitida yuzaga keladigan xarajatlarni tez qisqartirishga ko'maklashadi.	-xodimlarni qisqartirish; - xarajatlarning alohida turlariga yoki faqat korxonaning muayyan bo'linmalari uchun mos keladi.

⁹ Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi

Yangi zamonaviy kalkulyatsiya tizimlari nisbatan muvozanatli bo'lib, ulardagi ma'lumotlar an'anaviy vazifalarni hal etishga, shu bilan birga, qabul qilinayotgan qarorlarning iqtisodiy natijalarini prognoz qilishga ko'maklashadi. Bundan tashqari, ular quyidagilarga imkon beradi:

- mahsulotning aniq turini, keyinchalik, ishlab chiqarishning maqsadga muvofiqligini belgilash;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulotning maqbul narxini aniqlash;
- ishlab chiqariladigan mahsulotning assortiment rejasini optimallashtirish;
- qo'llanilayotgan texnologiya va dastgoh parkini yangilash zarurligini asoslash.

Muallifning fikricha, xorijda yangi, zamonaviy uslublarning paydo bo'lishi aniq ishlab chiqarishlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, mahsulot tannarxi va narxini pasaytirish orqali raqobat ustunliklariga ega bo'lish zarurati bilan bog'liqdir.

Tadqiqot ishida ushbu zamonaviy innovatsion uslublarning afzalliklari va kamchiliklari asoslab berilgan (2-jadval).

Ilmiy tadqiqot ishining obyekti sifatida belgilangan "Quva tekstil" korxonasida mahsulot tannarxini hisobga olish to'liq xarajatlar uslubiga asoslanib, uning tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan barcha o'zgaruvchan va doimiy xarajatlari kiritilgan (3-jadval).

3- jadval.

"Quva tekstil" korxonasida mahsulot xarajatlarini to'liq kalkulyatsiya qilish uslubi bilan aniqlashning hisob-kitobi¹⁰

Ko'rsatkich	30/1 raqamli ip kalava	30x60 o'lchamdagi momiq sochiq	Jami
Mahsulot sotishdan tushgan tushum, so'm	1 964 673 064	181 060 000	2 145 733 064
Ishlab chiqarish hajmi, kilogramm/dona	61380,05	32920	-
Material xarajatlar, so'm	1 285 226 800	114 214 231	1 399 441 031
Mehnat xarajatlari, so'm	122 699 678	10 748 810	133 448 488
Bilvosita xarajatlar, so'm	272 201 638	24 910 166	297 111 804
Jami ishlab chiqarish xarajatlari, so'm	1 680 128 116	149 873 207	1 830 001 323
Davr xarajatlari, so'm	111 187 263	9 020 527	120 207 790
Umumiy xarajatlar, so'm	1 791 315 379	158 893 734	1 950 209 119
Birlik mahsulot uchun xarajatlar, so'm	29184	4827	-
Operatsion foyda, so'm	173 343 070	22 166 266	195 509 336
Rentabellik darajasi, %	9,7	13,9	-

Ishlab chiqarish xarajatlarining to'g'ri hisobga olinishi mahsulot birligi uchun tannarx tarkibini shaffof belgilash asosida mahsulot narxini optimal shakllantirish sharoitini yaratadi. Mahsulot narxining pasayishi mahsulotga bo'lgan talabni

¹⁰ Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi

ko'paytirgan holda korxonaning foyda miqdorini oshiradi. Shu sababli tadqiqot ishida "Quva tekstil" korxonasi misolida zamonaviy sharoitlarda qo'llanilib kelinayotgan ABC costing uslubidan foydalangan holda mahsulot tannarxi shakllantiriladi (4-jadval).

4-jadval

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bevosita xarajatlarni hisoblash(ABC usulida)¹¹

Mahsulot turi	Mahsulot hajmi, kg/dona	Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi mehnat xarajatlari, so'm	Jami mehnat xarajatlari, so'm	Mahsulot birligiga to'g'ri keluvchi material xarajatlari, so'm	Jami material xarajatlari, so'm
30/1 raqamli ip kalava	61380,05	1999	122 699 678	20938,8	1285226800
30x60 o'lchamli sochiq	32920	326,5	10 748 810	3469	114 214 231

Hisob-kitoblar mahsulot ishlab chiqarish jarayonida xarajatlarni belgilovchi drayver ko'rsatkichlarni aniqlash va ularni mahsulot turlari bo'yicha taqsimlashda davom ettiriladi. Buning uchun faoliyat turlari sifatida ishchi kuchi iste'moli, asosiy jihozlar ekspluatatsiyasi, materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berish, mahsulot sifatini nazorat qilish va asbob-uskunalar sarfi kabilar tanlab olindi.

5 – jadval

Xarajatlarni belgilovchi ko'rsatkichlar bo'yicha sarflar hisobi (ABC usuli)¹²

Faoliyat turi	Bilvosita xarajatlar so'm	Xarajatlarni belgilovchi ko'rsatkichlar (drayverlar)	Ko'r-sat-kichlar miqdori	30/1 raqamli ip kalava	30x60 o'lchamli momiq sochiq	Xarajatlarni belgilovchi yetakchi ko'rsatkich qiymati, so'm
Ishchi kuchi iste'moli	78432380	Kishi-soat	60394	53462	6932	1299
Asosiy jihozlar ekspluatatsiyasi	65745530	Mashina-soat	114929	101738,27	13190,73	572
Materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berish	5932270	Qabul qilingan partiyalar soni	115	96,83	18,17	51585
Mahsulot sifatini nazorat qilish	88386720	Nazorat operatsiyalari soni	140	136,04	3,96	631334
Asbob uskunalar sarfi	58601500	Asboblarning soni	232	212,51	19,49	252593

¹¹ Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi

¹² Muallif tomonidan tadqiqot natijalari asosida tayyorlandi

Tadqiqotda amalga oshirilgan hisob-kitoblar natijasiga ko'ra, 30/1 raqamli ip kalava ishlab chiqarish uchun ishchi kuchi iste'moli 53462 kishi/soat, asosiy jihozlar ekspluatatsiyasi 101738,27 mashina/soat, materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berish 96,83 ta qabul qilingan partiyalar, mahsulot sifatini nazorat qilish 136,04 nazorat operatsiyalari va 212,51 dona asbob-uskunalar tashkil etdi. 30x60 o'lchamli momiq sochiq ishlab chiqarish uchun esa ishchi kuchi iste'moli 6932 kishi/soat, asosiy jihozlar ekspluatatsiyasi 13190,73 mashina/soat, materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berish 18,17 ta qabul qilingan partiyalar, mahsulot sifatini nazorat qilish 3,96 nazorat operatsiyalari va 19,49 dona asbob-uskunalar sarflangan (5-jadval).

Mahsulot turlari bo'yicha bilvosita xarajatlar taqsimoti amalga oshiriladi.

6- jadval

Mahsulot turlari bo'yicha bilvosita xarajatlarning taqsimoti(ABC usulida)¹³

Faoliyat turi	Xarajatlarni belgilovchi ko'rsatkichlar (drayverlar)	30/1 raqamli ip kalava		30x60 o'lchamli momiq sochiq	
		Ko'rsatkichlar miqdori	Ustama xarajatlar summasi, so'm	Ko'rsatkichlar miqdori	Ustama xarajatlar summasi, so'm
Ishchi kuchi iste'moli	Kishi-soat	53462	69447138	6 932	9 004 668
Asosiy jihozlar ekspluatatsiyasi	Mashina-soat	101 738,269	58 194 300	13 190,731	7 545 086
Materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berish	Qabul qilingan partiyalar soni	96,83	4 994 980	18,17	937 295
Mahsulot sifatini nazorat qilish	Nazorat operatsiyalari soni	136,040	85 886 680	3,96	2 500 081
Asbob uskunalar sarfi	Asboblari soni	212,51	53 678 540	19,49	4 923 036
Jami			272 201 638		24 910 166

Amalga oshirilgan hisob ishlariga ko'ra, 30/1 raqamli ip kalava ishlab chiqarishga ishchi kuchi iste'moli uchun 69447138 so'm, asosiy jihozlar ekspluatatsiyasiga 58194300 so'm, materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berishga 4994980 so'm, mahsulot sifatini nazorat qilish uchun 85886680 so'm va asbob-uskunalariga 53678540 so'm, jami 272201638 so'mlik bilvosita xarajatlar; 30x60 o'lchamli momiq sochiq ishlab chiqarish uchun esa ishchi kuchi iste'moliga 9004668 so'm, asosiy jihozlar ekspluatatsiyasiga 7545086 so'm, materiallar ta'minoti yoki ularni yetkazib berish uchun 937295 so'm, mahsulot sifatini nazorat qilishga 2500081 so'm va asbob-uskunalar uchun 4 923 036 so'm, jami 24910166 so'mlik bilvosita xarajatlar sarflangan (6-jadval).

¹³ Korxona ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Yuqoridagi hisob-kitoblar natijasida mahsulot turlar bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari aniqlandi (7-jadval).

7- jadval

Mahsulot turlari bo'yicha tannarx hisobi (ABC usulida)¹⁴

Xarajat nomlari	30/1 raqamli ip kalava uchun	30x60 o'lchamli momiq sochiq uchun
Material xarajatlar, so'm	1 285 226 800	114 214 231
Mehnat xarajatlari, so'm	122 699 678	10 748 810
Bilvosita xarajatlar, so'm	272 201 638	24 910 166
Jami ishlab chiqarish xarajatlari, so'm	1 680 128 116	149 873 207
Bir-birlik mahsulot tannarxi, so'm	27 372, 5	4 553
Foyda, so'm	284 544 948	31 186 793
Rentabellik darajasi, %	16, 9	20,8

ABC uslubida bilvosita xarajatlarning drayver ko'rsatkichlar asosida taqsimlanishi har bir mahsulot turiga ushbu xarajatlarni to'g'ri kiritish sharoitini yaratib, mahsulot tannarxining optimal belgilanishini ta'minlaydi. Shundan kelib chiqib tadqiqot ishida barcha uslublar bo'yicha amalga oshirilgan mahsulot tannarxi hisobining taqqoslama tahlili amalga oshirildi (8-jadval).

8-jadval

“Quva tekstil” korxonasida mahsulot tannarxini aniqlashda qo'llanilgan uslublarning taqqoslama tahlili¹⁵

Ko'rsatkichlar	To'liq tannarxni kalkulyatsiya qilish uslubi asosida hisoblash	Tannarxni ABC- uslubi asosida hisoblash
1 kilogramm 30/1 raqamli ip kalava uchun xarajat	29184	27372,5
1 dona 30x60 o'lchamli momiq sochiq uchun xarajat	4827	4553
Mahsulot turlari bo'yicha yillik tannarx, so'm.	1 950 209 119	1 830 001 323
Foyda, so'm.	195 509 336	315 731 741
Rentabellik ko'rsatkichi, (xarajatlar) %.	10,02	17,50

Yuqoridagi tahlillarga asoslangan holda muallifning xulosasiga ko'ra, to'qimachilik sanoati korxonalari amaliyotida mahsulot tannarxini aniqlashda zamonaviy **“ABC costing”** uslubini qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi, chunki bu uslubning qo'llanilishi natijasida operatsion foyda miqdori oshib, tannarx darajasi optimallasadi.

Xarajatlar hisobini yuritishning birinchi bosqichi yordamchi xo'jalik xizmatlarini jamlash va taqsimlashni ko'zda tutadi. Materiallarni iste'mol qilish, ish haqini, amortizatsiya ajratmalarini yordamchi xo'jaliklar sexlari bo'yicha

¹⁴ Korxona ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

¹⁵ Korxona ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

taqsimlash to'g'risidagi ma'lumotlar jamlanma vedomostlarda aks ettiriladi. Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, yordamchi sexlarning haqiqiy xarajatlari hisoblab chiqiladi, so'ngra korxonaning tarkibiy bo'linmalari (asosiy va yordamchi ishlab chiqarish sexlari), xarajatlar hisobvaraqlari hamda xarajat moddalari bo'yicha taqsimlanadi.

Ma'lumki, umumishlab chiqarish xarajatlari 2510 schyotda aks ettiriladi. Bu hisobvaraqlar tarkibida korxonalarda ishlab chiqariladigan barcha mahsulot turlari bo'yicha sarflangan xarajatlari, xususan, elektr-energiya, issiqlik energiyasi, sovuq suv, texnik suv, yumshatilgan suv, siqilgan havo, gaz, dispetcherlik aloqasi, transport xizmati, jihozlarni ta'mirlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari aks ettiriladi. Muallifning fikricha, xarajatlarni ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlari bo'yicha taqsimlash, jarayonining aniqligini oshirish maqsadida 2510 schyotni mahsulot turlari bo'yicha ishchi schyotlarga taqsimlab hisobga olish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda quyidagi ishchi schyotlarni joriy etish taklif etiladi: 2511-kalava-ip ishlab chiqarish, 2512-gazlama ishlab chiqarish, 2513-bo'yoqlash, 2514-tikish sexlari xarajatlari. Bu ishchi schyotlarning hisobini yuritish jarayoni quyidagi 9-jadvalda keltirilgan.

9-jadval

2510 schyotni ishchi schyotlarga taqsimlab hisobga olinishi¹⁶

Korxonalarda amalda qoʻllanilayotgan buxgalteriya oʻtkazmalari				Tavsiya etilayotgan buxgalteriya oʻtkazmalari			
Elektroenergiya boʻyicha qarzdorlik hisoblanganda							
Dt 2710		327 269,0		Dt 2511		153 303,0	
Kt 6010		327 269,0		Dt 2512		136 666,0	
				Dt 2513		21 700,0	
				Dt 2514		15 600,0	
				Kt 6010		327 269,0	
